BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIY FANLAR DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YIN, O‘QUV MUNOZARALARI, BURCH VA MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Berdiyarova Maxfuza Ilhom qizi
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 2-bosqich magistranti

Qabul qilindi: 26.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 27.10.2025
Tasdiqlandi: 28.10.2025

Kalit so‘zlar:
boshlang‘ich ta’lim, tabiy fanlar, didaktik o‘yin, o‘quv munozaralari, burch, mas’uliyat, pedagogik metodlar, ta’lim jarayoni.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida tabiiy fanlarni o‘qitishda didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari va o‘quvchilarda burch hamda mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish metodlarining ahamiyati yoritilgan. Maqolada o‘quv jarayonida o‘yin va munozara usullarining o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish, ularni faol ishtirokchi sifatida darsga jalb etish hamda o‘z fikrini mustaqil ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati, shaxsiy namuna va psixologik yondashuvi orqali o‘quvchilarda mas’uliyat va burch hissini tarbiyalashning samarali yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Keywords:
primary education, natural sciences, didactic games, educational discussions, duty, responsibility, pedagogical methods, educational process.

Annotation. This article highlights the importance of didactic games, educational discussions, and methods for forming a sense of duty and responsibility in students in teaching natural sciences in primary education. The article analyzes the role of game and discussion methods in the educational process in developing students' thinking, involving them in the lesson as active participants, and forming the skills of independent expression of their opinions. It also discusses effective ways to cultivate a sense of responsibility and duty in students through the teacher's pedagogical skills, personal example, and psychological approach.

Ключевые слова:
Начальное образование, естественные науки, дидактические игры, учебные дискуссии, долг, ответственность,

Аннотация. В статье рассматривается значение дидактических игр, учебных дискуссий и методов формирования чувства долга и ответственности у учащихся при обучении естествознанию в начальной школе. Анализируется роль игровых и дискуссионных методов в образовательном процессе в развитии

педагогические методы, образовательный процесс.

мышления учащихся, вовлечении их в процесс обучения в качестве активных участников и формировании навыков самостоятельного выражения своего мнения. Также рассматриваются эффективные способы воспитания чувства долга и ответственности у учащихся посредством педагогического мастерства учителя, личного примера и психологического подхода.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim davri inson hayotidagi eng muhim va ta’sirchan davr hisoblanadi. Bu bosqichda bolalar faqat asosiy bilimlarni egallab qolmay, balki shaxs sifatida shakllanadi, ijtimoiy, aqliy, emosional va axloqiy jihatdan rivojlanadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar ta’limi bolalarda atrof-muhitga bo‘lgan qiziqish va tushunishni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tabiiy fanlar orqali o‘quvchilar o‘z atrofidagi dunyoni o‘rganish, tabiat qonuniyatlarini anglash, ekologik madaniyatni hosil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar ta’limini samarali tashkil etish nafaqat bilim berish, balki ta’limning tarbiyaviy funksiyasini bajarishda ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari va shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish metodlari o‘quvchilarning faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutqlarida “Har bir bola o‘z qobiliyatini namoyon etishi uchun ta’lim tizimi zamonaviy va interfaol metodlarga tayanmog‘i lozim”[1], deb ta’kidlaganlar. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari hamda burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlari ta’lim samaradorligini oshirish va bolalar shaxsini to‘la rivojlantirishda asosiy vositalar sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. Didaktik o‘yinlar o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan pedagogik texnologiyadir. O‘yin orqali o‘rganilgan bilimlar nafaqat oson qabul qilinadi, balki uzoq muddat esda qoladi, bu esa tabiiy fanlarning murakkab tushunchalarini osonroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘yinlarning turli shakllari bolalarda jamoaviy hamkorlik, muloqot va ijodkorlikni rivojlantiradi. “Didaktik o‘yinlar bolalar tafakkurini faollashtirib, ularni fanga nisbatan qiziqishini oshiradi va mustaqil fikrlashga yo‘naltiradi.”[2] O‘quv munozaralari esa o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifoda etish, boshqalar fikrini tinglash va ularga asoslangan holda munozara olib borish imkonini beradi. Bu jarayon

[1] Mirziyoyev, Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: 2022.
[2] Yo‘ldosheva, M. *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun pedagogika asoslari.* Toshkent: “Fan va texnologiya”2020.

o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ularni mantiqan fikrlashga, dalillarni tahlil qilishga va muammolarga har xil nuqtai nazardan qarashga o‘rgatadi. Ayniqsa, tabiy fanlar darslarida munozaralar o‘quvchilarga tabiat hodisalari va atrof-muhit masalalari bo‘yicha ongli qaror qabul qilishga yordam beradi.

Burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlari o‘quvchilarda o‘z vazifalari va harakatlari uchun mas’uliyatni anglashni kuchaytiradi. “Mas’uliyat hissi o‘quvchining o‘z o‘qishiga nisbatan ongli munosabatini bildiradi. Uni shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, o‘quv topshiriqlarining mazmuni va nazorat tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega.” [3] Boshlang‘ich sinfda bu, asosan, ekologik tarbiya, atrof-muhitni asrash va tabiat bilan hamkorlik qilish madaniyatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar kichik guruhlarda o‘zlariga berilgan vazifalarni bajarish orqali nafaqat bilimlarni mustahkamlashadi, balki jamoaviy ishda mas’uliyatni his qilishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, ularning o‘z burchlarini anglab, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha shaxsiy pozitsiyasi shakllanadi. “O‘quv munozaralari o‘quvchilarda o‘z fikrini erkin ifodalash, dalillar bilan asoslash hamda muloqot madaniyatini shakllantiradi.” [4]

O‘quv munozarasi jarayonida o‘quvchi o‘z fikrini bayon etish, uni asoslash va boshqalarning fikrini tinglash ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa shaxsning kommunikativ madaniyatini, tanqidiy va mantiqiy fikrlash salohiyatini shakllantiradi. Boshlang‘ich ta’limda bunday metodlardan foydalanish o‘quvchilarni o‘z fikriga ega bo‘lishga, uni asoslab ayta olishga va e’tirozlarni madaniyatli tarzda qabul qilishga o‘rgatadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar darslarida o‘quv munozaralari ilmiy tafakkurni rivojlantirish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va mustaqil xulosa chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, o‘quv munozaralari orqali o‘quvchilar o‘zaro hurmat, hamkorlik va mas’uliyatni his etadilar. O‘qituvchi esa bu jarayonda faqat boshqaruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, kuzatuvchi va tahlilchi rolini bajaradi. Shu tariqa, munozara jarayonida o‘quvchilar nafaqat yangi bilim oladi, balki ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni ham o‘zlashtiradi.

Munozara. Boshlang‘ich ta’limda tabiy fanlar darslarida didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari hamda burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlarining qo‘llanilishi pedagogik jarayonning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘yinlar yordamida o‘quvchilar mavzuni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yaxshiroq egallaydi, bu esa o‘quv jarayonining yanada chuqurlashishiga olib

[3] Hasanova, D. *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish yo‘llari.* Toshkent: TDPU ilmiy to‘plami, 2021.

[4] Qodirova, N. *Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.* Toshkent: “Tafakkur”.2019

keladi. Shu bilan birga, o‘yinlar o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, jamoaviy hamkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu pedagogik yondashuv, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda tabiy fanlarni o‘qitishda samaradorlikni oshirishda keng qo‘llanilishi kerak.

O‘quv munozaralarining ta’lim jarayonidagi o‘rni ham alohida ta’kidlanishi lozim. Munozaralar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ravshan va mantiqan ifoda etish, boshqalar fikrini tinglash va tushunish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, muntazam o‘quv munozaralarida ishtirok etish o‘quvchilarning intellektual faolligini oshirib, mavzuni chuqur anglashga yordam beradi. Bu esa ayniqsa tabiy fanlar darslarida murakkab ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish uchun muhimdir. Shu bilan birga, munozaralar ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi, chunki o‘quvchilar guruhda ishlash, muloqot qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini o‘rganadi.

Burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlari esa o‘quvchilarda o‘z vazifalarini anglash va bajarishga bo‘lgan mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu jihatdan ular nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki ijtimoiy mas’uliyatning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Ekologik mas’uliyatni tarbiyalash tabiy fanlar darslarining ajralmas qismi bo‘lib, bu orqali o‘quvchilar atrof-muhitni asrashga o‘rgatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlari o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish, intizom va jamoadagi o‘rinini anglash kabi sifatlarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari va burch hamda mas’uliyatni shakllantirish metodlarini birgalikda qo‘llash ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Ularning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlash, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va jamoadagi o‘rinlarini to‘g‘ri anglashiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, pedagoglarning ushbu metodlarni to‘g‘ri va malakali qo‘llashi muhimdir, chunki noto‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin yoki munozara jarayoni o‘quvchilarda chalkashlik va motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy ta’limning raqamli texnologiyalar bilan boyitilishi didaktik o‘yinlar va munozaralarni yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Masalan, interfaol taxta, o‘quvchilar uchun maxsus ilovalar va onlayn platformalar yordamida o‘yin va munozaralarni yanada samarali tashkil etish mumkin. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning zamonaviy texnologiyalarni egallashi va o‘quv jarayoniga integratsiya qilishi muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot muhokamasi. Ushbu tadqiqot bosqichida boshlang‘ich sinflarda tabiy fanlar darslarida didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari hamda burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlarining ta’lim jarayoniga ta’siri va samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshiradi, bu esa bilimlarni yanada

samarali va uzoq muddatga o‘zlashtirishga xizmat qiladi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar qiziqish bilan ishtirok etadi, mavzuni amaliy jihatdan ham o‘rganadi, bu esa ularning tabiat qonuniyatlarini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Bu natija o‘qituvchilarning pedagogik amaliyotida didaktik o‘yinlarning qo‘llanilishini yanada rag‘batlantiradi.

Burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlari o‘quvchilarda o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilish va bajarilayotgan vazifalarga jiddiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ekanligi ko‘rsatildi. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘quvchilarda ushbu metodlarni qo‘llash natijasida ekologik mas’uliyatning oshgani, atrof-muhitni asrashga bo‘lgan munosabatining ijobiy tomonga o‘zgargani kuzatildi. Bu esa tabiy fanlar darslarining nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy funksiyasini ham bajarishida metodlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari va burch hamda mas’uliyatni shakllantirish metodlarini birgalikda qo‘llash ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini rag‘batlantirib, ularning bilimlarini chuqur va mustahkam qiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning ushbu metodlarni samarali qo‘llash uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhimdir.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda tabiy fanlar darslarida didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari hamda burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning bilimlarni yanada qiziqarli va faol tarzda egallashini ta’minlab, ularning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quv munozaralari esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muloqot qilish va o‘z fikrini ifoda etish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlari o‘quvchilarda o‘z vazifalarini anglash va ularga mas’uliyat bilan yondashish kabi shaxsiy va ijtimoiy sifatlarni rivojlantiradi.

Ushbu metodlarning birgalikda qo‘llanilishi dars jarayonini yanada samarali, interaktiv va ta’limiy jihatdan boyitilgan qiladi. Pedagoglarning malakasi va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish esa ushbu metodlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda tabiy fanlar darslarida didaktik o‘yinlar, o‘quv munozaralari hamda burch va mas’uliyatni shakllantirish metodlarini tizimli ravishda qo‘llash ta’lim sifatini va o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2018). *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Yo‘ldosheva, M. (2020). *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun pedagogika asoslari*. Toshkent: “Fan va texnologiya”.

3. Tursunova, D. (2021). *Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Olimova, G. (2022). *Sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan hamkorligi*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. Qodirova, N. (2019). *Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda zamonaviy metodik yondashuvlar*. Toshkent: O‘zPFITI.
6. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ma’naviyatini oshirishga xizmat qiluvchi omillar; Pedagogika OAK jurnali. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal; Toshkent, 2024 6-son
7. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I**.** Methodology of Spiritual Education in Primary E;IF (импакт-фактор)12,38 / 2024; American Journal of Alternative Education ISSN: 2997-3953 (Online) Vol. 1, No. 10, Dec 2024, Available online at: https://scientificbulletin.com/index.php/AJAE; 113-116 betlar
8. Eshmurodova G.X, Berdiyarova M.I. Spiritual Qualities of Primary School Students;IF (импакт-фактор)12,43 / 2024 Excellencia: international multi-disciplinary journal of education https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje 290-294 betlar.
9. Primova, M. (2024). INTERPRETABLE PHRASEOLOGICAL UNITS OF CHARACTER EXPRESSION IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. *Академические исследования в современной науке*, *3*(5), 130-134.
10. Pirimova, M., Torambetov, B., Kadirova, S., Ziyaev, A., Gonnade, R. G., & Ashurov, J. (2022). Synthesis, crystal structure and Hirshfeld surface analysis of a zinc (II) coordination polymer of 5-phenyl-1, 3, 4-oxadiazole-2-thiolate. *Structure Reports*, *78*(8), 794-797.
11. Pirimova, M. A., Kadirova, S. A., Ziyayev, A. A., & Buvraev, E. R. (2023). Co (II) VA V (V) NING 5-(FENIL)-1, 3, 4-OKSADIAZOL-2-TION ASOSIDAGI ARALASH METALLI KOMPLEKS BIRIKMASINI ANTIOKSIDANTLIK FAOLLIGINI O ‘RGANISH. *2020, No. 1 (119/2)*, *119*(90), 5-9.
12. Primova, M. A. Kadirova Sh. A., Ziyayev AA, Buvrayev ER Co (II) va V (V) ning 5-(fenil)-1, 3, 4-oksadiazol-2tion asosidagi aralash metalli kompleks birikmasini antioksidantlik faolligini o’rganish. *Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi-2020 yil*.
13. Primova, M. A., Kadirova, S. A., Ziyayev, A. A., & Buvrayev, E. R. (2020). va V (V) ning 5-(fenil)-1, 3, 4-oksadiazol-2tion asosidagi aralash metalli kompleks birikmasini antioksidantlik faolligini o'rganish.
14. Нуралиева, Г. А., & Пиримова, М. А. Universum: Химия и биология: электр. научн. журн. 2020. № 2 (68).
15. PIRIMOVA, M. A., KADIROVA, S. A., & ZIYAYEV, A. A. (2025). Synthesis and study of complex compounds with 1, 3, 4-oxadiazole derivatives based on ammonium vanadate. *Chemistry and chemical engineering*, *2024*(4), 5.

16. Abdukhakim, Z., & Mehribon, P. (2025). SYNTHESIS, CRYSTAL STRUCTURE AND HIRSHFELD SURFACE ANALYSIS OF A 2–CARBOXYMETHYLTHIO-5-PHENYL-1, 3, 4-OXADIAZOLE. *Universum: химия и биология*, *4*(6 (132)), 31-35.
17. Mehribon, P., & Ziyaev, A. A. Synthesis, Crystal Structure and Hirshfeld Surface Analysis of A 2–rboxymethylthio-5-Phenyl-1, 3, 4-Oxadiazole. *Available at SSRN 5120800*.
18. Саидов, С. С., Исмаилова, Д. С., & Абдуразаков, А. Ш. (2025). СИНТЕЗ АЗОМЕТИНОВ И АМИДОВ В РЯДУ 1, 3, 4-ОКСАДИАЗОЛОВ. *Universum: химия и биология*, *3*(6 (132)), 23-28.
19. Mehribon, P., & Ziyaev, A. A. Synthesis, Crystal Structure and Hirshfeld Surface Analysis of A 2–rboxymethylthio-5-Phenyl-1, 3, 4-Oxadiazole. *Available at SSRN 5120800*.